

**HOZIRGI ZAMON TALABALARINING BILIM Olishida ETIK –  
ESTETIK CHALG’ITUVCHI OMILLAR**

**Shayqulov H.Sh.**

**Mamarasulova N.I.**

**Yusupov M.I.**

*Mikrobiologiya, virusologiya,  
immunologiya kafedrasi assistentlari  
Samarqand Davlat tibbiyot  
universiteti. O‘zbekiston.*

**Annotasiya:** ushbu keltirilgan ishda tibbiyot institutlarida ta’lim berish jarayonida ta’lim oluvchida tashkilotchilik qobiliyatlarini, klinik ko’nikmalarini, individual malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, o’z - o’zini tahlil qilishga va istiqbolini belgilashga yo’naltirilgandir. Talabalarda o’qishga-ta’lim olishga bo’lgan ishtiyoqni pasayishiga etik – estetik chalg’ituvchi omillarni aniqlashga qaratilgan, “Sizda o’qishga – ta’lim olishga bo’lgan ishtiyoqning pasayishiga qanday omillar sabab bo’lmoqda?” so’rovnomasi (anketasi)ga erkin fikr bildirish va olingan ma’lumotlarning statistik tahlili keltirilgan bo’lib, bu tahlil natijalariga tayangan holda talabalarga fanni oson o’zlashtirish, yuqori texnologiyalardan keng qamrovli foydalanish imkonini beribgina qolmasdan, o’qituvchilar va talabalar uchun o’quv jarayonini oson, tushunarli va qulay qilib, ta’limning barcha asosiy bosqichlarini qamrab olishiga, hamda o’qituvchi va talabalarni munosabatlari hamfikir bo’lishiga yordam beradi.

**Kalit so’zlar:** Talaba, o’zini tahlil qilish, etik, estetik, omillar, o’quv qo’llanma, ilmiy, uslubiy, masuliyatsizlik.

**Mavzuning dolzarbligi:** Davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangandek, bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi mamlakatimizning taraqqiy etishi eng avvalo, yoshlarda innovasion tafakkurini shakllantirish muhim ahamiyat

kasb etadi. Zero, bugungi zamon talabi intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash borasida teran fikrlashni taqoza etmoqda. Bu haqda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "...biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz"[1], -deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta. Zero, bugungi tezkor rivojlanayotgan globallashuv sharoiti yoshlarda innovasion tafakkurni shakllantirishda yanada jadal va shijoat bilan ishlash vazifasini qo'ymoqda. Xususan, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagi —O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi 515-son qarorlarini qabul qilinishi bu dasturni bosqichma – bosqich isloh etilayotganligining yaqqol misolidir. Mazkur qarorlarda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, mehnat bozori talablariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabimasalalarini hal etishga alohida urg'u berilgan. [2],

Hozirgi kunda tibbiyot institutlarida ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchida tashkilotchilik qobiliyatlarini, klinik ko'nikmalarini, individual malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'z - o'zini tahlil qilishga va istiqbolini belgilashga yo'naltirilgandir.

Institut talabalari ta'limida yangi bilimlarni egallashga bo'lgan motivasiya muhim bo'lib, talabalarning faol mustaqil ishi, jiddiy va doimiy motivasiyasiz, o'quv jarayonining samaradorligi haqida gapirish aslo mumkin emas. Innovasion g'oyalar avvalo o'quv jarayoni motivasiyasini oshirishga qaratilishi zarurdir.

**Ishning maqsadi.** Talabalarda o'qishga-ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqni pasayishiga etik – estetik chalg'ituvchi omillarni aniqlash.

**Material va uslub.** “Sizda o'qishga – ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqning pasayishiga qanday omillar sabab bo'lmoqda?” so'rovnomasi (anketasi)ga erkin fikr bildirish va olingan ma'lumotlarning statistik tahlili.

**Olingan natijalar.** 128 nafar talaba ishtrok etgan so’rovnoma o’rganib chiqilganda aksariyat (73,4%) talabalar mavzularni o’zlashtirishi uchun zarur bo’lgan o’zbek tilidagi darslik, o’quv qo’llanma, ilmiy va ilmiy - uslubiy ishlanmalarning yetarli emasligi, mavjudlarining esa aksariyatini murakkab, tor yoki eski ma’lumotlar ekanligi haqida fikr bildirishgan;

Motivasiyaning yetarli emasligi haqida 82 nafar (64,1%) talaba fikr bildirib, hattoki, dushanba kuni birinchi soat “Motivasiya soati bo’lsayaxshi bo’lar edi” - degan takliflarni ham bildirishdi.

O’qishga – ta’lim olishga bo’lgan ishtiyoqning pasayishiga sabab deb hisoblangan boshqa omillar haqidagi fikrlar quyida keltirilgan jadvalda o’z aksini topdi:

№	O’qishga – ta’lim olishga bo’lgan ishtiyoqning pasayishiga sabab deb hisoblangan omillar.	Abs.	%
1.	O’zbek tilida yangi ma’lumotlar, yangi adabiyotlar yetarli emas	94	73,4
2.	Motivasiyaning yetishmasligi	82	64,1
3.	O’kituvchilarning fanga qiziqitira olmasligi	76	59,4
4.	Dangasalik	71	55,5
5.	Amalyot (jarayonni bevosita ko’rish, ishtrok etish va h.k.)ning kamligi	67	52,3
6.	Institutga kirguncha repetitorlarga o’rganib qolganligi va institutda repetitor kabi dars o’tilmayotganligi	56	43,8
7.	Semestrlar yakunida baxolanishdan qoniqmaslik	48	37,5
8.	Faol talabalarni faqat baho bilan emas balki boshqa noan’anaviy rag’batlantirish shakllarining yo’qligi	42	32,8
9.	Dars jarayonida qo’l telefonlaridan foydalanish oqibatida boshqa mobil ilovalarga chalg’ib qolish.	41	32,0

10	Kundalik vaqtni to'g'ri rejalashtira olmaslik	37	28,9
11	Masuliyatsizlik	34	26,6
12	Talabalar uchun kunlik na'munaviy kun tartibi algoritimining yo'qligi	28	21,9
13	Aniq maqsadni aniqlay olmaslik	24	18,8
14	Qo'rqqoqlik	23	18,0
15	O'quv xonalarini mavzuga mos jixozlanmaganligi	22	17,2

- O'qituvchilarning o'z faniga talabalarni qiziqтира olmasligi, oqibatda fanning ahamiyatini, kelgusida egallamoqchi bo'lgan kasbidagi o'rnini tushinmaslikka, bu fan ortiqchadek tasavvur paydo bo'lishiga, talabaning zerikishiga sabab bo'lishi kabi masalalarga 76 nafar (59,4%) talaba;

- “Ayb o'zimizda, dangasamiz, dars qilish yoqmaydi” - degan fikr 71 (55,5%) talaba;

- “Ko'proq amaliy ishlar bo'lsa yaxshi bo'lar edi, ish jarayonini bevosita ko'rib - ishtrok etish juda kam” – deb 67 nafar (52,3%) talaba;

- Institutga kirguncha repititorlarning qattiqqo'lligiga, har bir mashg'ulotni aniq beligilab berishi va o'zlashtirilmagan taqdirda qaytadan o'tib berishiga o'rganib qolish, institutga kirgach repititor kabi individual dars o'tilmasligi, o'tilgan mashg'ulotlarni qayta eshitish imkoni yo'qligi haqida 56 nafar (43,8%) talaba;

- Semestrlar yakunida fanlarni o'zlashtirish darajasini baxolash shaffof emasligi, inson omili ustivorligi kabi sabablar o'qishga bo'lgan ishtyoqni so'ndirishi haqida 48 nafar (37,5%) talaba;

- Ma'ruza, amaliy mashg'ulot va semenarlarda faol ishtrok etgan talabalar o'z vaqtida qandaydir noan'anaviy rag'batlantirish uslublarini yo'qligi, talabani rag'batlantirish faqat baho shaklida ekanligi haqida 42 nafar (32,8) talaba;

- Dars jarayonida qo'l telefonlari, planshet yoki internetga ulangan boshqa qurilmalardan foydalanish o'tilayotgan mavzudan, bosh maqsaddan tinimsiz

chalg'itishga sabab bo'lishi, buni o'qituvchilar hych qachon nazorat etaolmasligi haqida 41 nafar (32%) talaba;

- Uyga berilgan mavzular, topshiriqlarning hajmini aniq chamalay olmaslik, shu sababli kundalik vaqtni noto'g'ri rejalashtib, “Ulgira olmayapmiz” degan fikrni 37 nafar (28,9%) talaba;

- Talabaga Davlat, ota – ona, homiylar tomonidan bildirilgan ishonchga mas'uliyatsizlik bilan yondashish haqida 34 nafar (26,6%) talaba;

- Ota – onasi bag'ridan kelgan ko'pchilik talabalar ilk bora mustaqil yashayotganligini inobatga olib na'munaviy “Talabaning kun tartibi - harakatlari algoritimi”ning ishlab chiqilmaganligi haqida 28 nafar (21,9%) talaba;

- O'qiyotgan fakultet yo'nalishi bo'yicha qaysi kasb egasi bo'la olishi mumkinligi haqida to'liq tasavvur, aniq maqsadning yo'qligi haqida 24 nafar (18,8%) talaba;

- Mashg'ulotlarda tushunmagan so'zlar, jumlar, mavzular haqida o'qituvchidan so'rashga botina olmaslik, qo'rqish, iymanish kabi fikrlarni 23nafar (18%) talaba;

- O'quv xonalar o'tilayotgan har bir mavzuga mos holda jihozlanmaganligi haqida 22 nafar (17,2%) talaba fikr bildirdi.

**Xulosa** qilib aytganda, ta'limni modernizasiyalashtirish jarayonida ta'lim oluvchi shaxsning mustaqilligi, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etishi, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq barcha xususiyatlarni hisobga olgan holda, ular tomonidan bildirilgan sabablar va omillarni davriy ravshda o'rganib borish ehtiyojini to'g'diradi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora - tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining 5590 - farmonida keltirilgan, tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishningsamarali tizimini shakllantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etishda talabalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni ham inobatga olish zarurdir.

**ADABIYOTLAR.**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston. 2018. B-15.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. T., 2017.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 2020 yil. 23-sentyabr.
4. 2019 yil 16 yanvardagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4119- son qapoplapi.
5. Musayev D.A., Turabekov Sh., Saidkarimov A.T., Raximov A.K. Genetikava seleksiya asoslari. “Fan va tyexnologiya”2012. 487 b.
6. Юсупов М. И., Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш. ОБ ИЗМЕНЕНИИ СВОЙСТВ КИШЕЧНЫХ ПАЛОЧЕК ПРИ ПОНОСАХ У ДЕТЕЙ //Экономика и социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 611-616.
7. Mamarasulova N. I., Shayqulov X. Sh., Boboqandova M. F., Muratova Z. T. MIKROBIOLOGIYA, VIRUSOLOGIYA VA IMMUNOLOGIYA FANINI O’QITISHDA MOODLE TIZIMINING AFZALLIKLARI // "OLIIY TIBBIY TA'LIM TIZIMI ISLOHATLARI:MARKAZIY OSIYODA TA'LIM "XAB"INI TASHKIL ETISH YO'LIDA"(Maxalliy jurnal) – 2020.